

DISSERTATSIYA

# ISHINING

## himoyasi

2022 yil 23 iyun kuni O'R QK Akademiyasida 21.01.04 – "Umumiy taktika, Qurolli Kuchlar ko'rinishlari, qo'shin turlari va maxsus qismlar bo'yicha (jumladan boshqaruv va jangning barcha ko'rinishdagi ta'minoti)" ixtisosligi yo'nalishda harbiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun doktorant, polkovnik G.D. Chatayevning dissertatsiya himoyasi bo'lib o'tdi

ACADEMY OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

№2(14) / 2022 *HARBIY TA'LIM VA FANDA INNOVATSIYALAR*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI



№2(14) / 2022

# HARBIY TA'LIM VA FANDA INNOVATSIYALAR

ILMIY-AXBOROT JURNALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI

# HARBIY TA'LIM VA FANDA INNOVATSIYALAR 2(14) 2022

*ILMIY-AXBOROT JURNALI*




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI

АКАДЕМИЯ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ACADEMY OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN


Ushbu ilmiy jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan (2018 yil 30 maydagi 253/7-sonli O'R Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining qarori).

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasining davriy nashri sanaladi.



Tahririyat manzili:
100023, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent-2 ko'chasi, O'R QK Akademiyasi
Tel.: (+998 71) 289-97-22
(+998 71) 289-97-47
Факс: (+998 71) 268-02-70
E-mail: akaduz@umail.uz
akaduz@yandex.ru
E-xat: so-akadvs@exat.uz



**MUASSIS:**

O'R QK Akademiyasi qoshidagi O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus harbiy o'quv yurtlari Ilmiy-uslubiy Kengash



**TAHRIR HAY'ATI:**

***Bosh muharrir:*** **Maxmudov V.V.,** general-leytenant, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi.

***Bosh muharrir o'rinbosari:*** **Abduvaxitov A.A.,** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi.

***Hay'at a'zolari:***

**Qarshiyev X.A.,** polkovnik, Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari;

**Shayakubov B.A.,** polkovnik, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi boshlig'i;

**Xatamov R.A.,** polkovnik, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi boshlig'i;

**Atayev M.I.,** dotsent, O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash Oliy maktabi boshlig'i;

**Ergashev V.Yo.,** yu.f.n., professor, bojxona xizmati polkovnigi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona instituti boshlig'i;

**Normatov Sh.T.,** general-leytenant, O'R MV Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti boshlig'i;

**Shoumarov G'.B.,** psixol.f.d. (DSc), professor, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri maslahatchisi;

**Samarov R.S.,** fals.f.d. (DSc), professor, polkovnik, O'R QK Akademiyasi boshlig'ining ilmiy ishlar va innovatsiya bo'yicha o'rinbosari;

**Fazilova D.Sh.,** f-m.f.d. (DSc), k.i.x., O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Ulug'bek nomidagi Astronomiya instituti laborotoriya mudiri;

**Mamadaliyev U.O.,** yu.f.n., dotsent, polkovnik, O'R MV Kadrlar bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari;

**Kodirov A.R.,** h.f.d. (DSc), dotsent, polkovnik, O'R QK Akademiyasi boshlig'ining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari;

**Ergashev A.A.,** h.f.f.d. (PhD), polkovnik, O'R QK Akademiyasi boshlig'ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari bo'yicha o'rinbosari;

**Abdurayimov S.S.,** h.f.d. (DSc), professor, polkovnik, ChOTQMBYu boshlig'ining o'quv va ilmiy ishlari bo'yicha o'rinbosari;

**Abdurahimova D.A.,** ped.f.d. (DSc), O'R QK Akademiyasi Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti;

**Alimov A.Yu.,** h.f.n., dotsent, O'R MV Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi;

**Abdullayeva S.Ya.,** fil.f.n., dotsent, O'R QK Akademiyasi Tillar kafedrasi mudiri;

**Axmadjonov B.A.,** h.f.f.d. (PhD), podpolkovnik, O'R QK Akademiyasi Oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'limi boshlig'i;

**Negrienko A.Ya.,** t.f.n., dotsent, O'R MV Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi;

**Tursunov B.P.,** f-m.f.n., O'R MV Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi;

**Axrorov S.Yu.,** sots.f.n., O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi ilmiy xodimi;

***Mas'ul kotib:*** **Raxmatbayev R.J.,** h.f.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik, O'R MV Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti Ilmiy-axborot bo'limi boshlig'i.

## МУНДАРИЖА

**САМАРОВ Р.С.** Эмпирик ҳарбий-психологик тадқиқотларнинг илмий таҳлилини амалга ошириш концепти ........ 3

**АБИДЖАНОВА М.А.** Ҳарбий хизматчиларда касбий фазилатларни шакллантиришда ҳарбий анъаналар: психологик жиҳатдан ........ 11

**НИШОНБОЕВ М.Х.** Модулли ўқитиш тизимида курсантларнинг профессионал тайёргарлиги сифатини ошириш йўллари ........ 17

**КАДИРОВ И.О., МУСАХАНОВА Г.М.** Инновацион технологиялар ва уларни мустақил таълим жараёнига татбиқ этишнинг зарурати ........ 22

**МИРАШИРОВА Н.А.** Ҳарбий психологларнинг амалий касбий компетенцияси шаклланишига доир назарий ёндашувлар ........ 27

**МИРПАЯЗОВА С.З.** Масофавий таълим жараёнларини амалиётга жорий этишнинг аҳамияти ва тамойиллари ........ 35

**МИРАБДУЛЛАЕВА Ш.А.** Ҳарбий хизматчилар ўқув-жанговар тайёргарлигининг психологик аспектлари ........ 40

**МУРАДОВ Ф.А.** Ретроспективный анализ формирования подразделений радиоэлектронной борьбы ........ 45

**УРИНОВ Ф.С., МАМЕДОВ Р.А.** Сравнительный анализ общевойсковых бригад современных армий ведущих государств как объектов ПВО ........ 53

**АЛИМОВ А.Ю.** Городской ландшафт как среда боевых действий в конфликтах современности ........ 62

**ТОИРОВ А.И., МУЙСИНАЛИЕВ У.А.** Амир Темур давлати бошқарувида демократия ва адолатнинг ўзига хос кўриниши ........ 68

**МАХМУДОВ М.И., ЮЛДАШЕВ Ф.Б.** Ҳарбий муҳандислик фаолияти тизимида робот-сапёрлар: ретроспектив таҳлил ........ 72

**НОРМАТОВ Р.Т.** Илғор хорижий армияларда ҳарбий хизматчиларни ватанпарварлик тарбияси масалалари ........ 80

**ULASHOV J.Z., MAXMUDOV N.A.** Harbiy mashinalarning elektr jihozlarini ekstremal sharoitlarda mini elektron asboblar yordamida diagnostikalash va uning matematik tahlili ........ 85

**ШУКУРОВ Н.Р., МУХАМАДИЕВ Г.М., КУЧКАРОВ Б.Т.** Обоснование типа инженерных машин к эксплуатационным условиям ........ 90

**ХАМИДОВ С.Р., ХУДАЯРОВ Н.А.** Амир Темур салтанатида разведканинг ўзига хос хусусиятлари ........ 95

**ВАХОБОВ Д.Э.** Жисмоний тарбиянинг мазмун - моҳияти ва тараққиёт учун аҳамияти ........ 99

**АХМАДЖОНОВ Б.А.** Проблематика военно-научной деятельности в контексте организации и проведения конференций ........ 103

**НЕГРИЕНКО А.Я., ИВАНОВА Е.В.** К вопросу о надежностной составляющей деятельности работника в сложных человеко-технических системах ........ 110

**ТОХИРОВ З.Т.** Построение математической модели оценки эффективности системы управления общевойскового соединения в ходе специальных войсковых действий ........ 114

**АНАРБОЕВ О.И.** Фуқаролик олий таълим муассасалари ҳарбий кафедраларида захирадаги офицерларни тайёрлашнинг ижтимоий ва психологик-педагогик муаммолари ........ 120

**АХМАДАЛИЕВ Р.М.** Ўқотар қуроллардан амалий ўқ отиш машқларини такомиллаштириш бўйича таклифларни ишлаб чиқиш ........ 129

**КАЮМОВ Ш.Ш.** Совершенствование методики расчета на блокирование противника в ходе специальных войсковых действий ........ 139

**БЕКМУРОДОВ Н.Н.** Экстремизм ва терроризмга қарши курашишнинг самарали механизмлари ........ 142

**МИСИРОВ Ш.Ч., ТУРСУНОВ Б.П., ЖУРАБОЕВ Н.И.** Ўқув режалари самарадорлигини ошириш мезонлари аниқлаш усули ........ 147

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI**

*Jurnal 2018 yil iyun oyidan chiqa boshlagan*

**UO'K 355.21/.23:341.3(051)**

Mazkur ilmiy jurnal O'R QK Akademiyasi qoshidagi O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus harbiy o'quv yurtlari Ilmiy-uslubiy Kengashining matbuot organidir.

Jurnalda harbiy fan va ta'limda innovatsion yondashuvlarning tarixiy, falsafiy, psixologik, pedagogik, texnik, huquqiy, harbiy-texnik kabi jihatlari yoritilgan. Ushbu maqolalar Akademiya va boshqa oliy harbiy-ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari, tinglovchilari, kursantlari va qo'shinlar ofitserlari uchun mo'ljallangan.

Jurnalda maqolalardan to'liq yoki qisman foydalanilganda "Harbiy ta'lim va fanda innovatsiyalar" jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Maqolalardagi iqtiboslar, ismlar, sarlavhalar va boshqa ma'lumotlarning to'g'riligiga va aniqligiga, shuningdek, nashr etilgan materiallar uchun intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilganligiga mualliflar javobgardirlar.

**UO'K 355.21/.23:341.3(051)**

© O'R QK Akademiyasi nashri, 2022

**№2(14), 2022 yil**

# ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА УЛАРНИ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ ЗАРУРАТИ

**КАДИРОВ И.О.,**
доцент, подполковник, ЎР ҚК Академияси умумий тактика кафедраси катта ўқитувчиси

**МУСАХАНОВА Г.М.,**
Тошкент Давлат Иқтисодиёт Университети катта ўқитувчиси

Мазкур мақолада инновацион технологиялар ва мустақил таълимни бугунги кундаги таълим тизимидаги ўрни, мустақил таълимни лойиҳалаштириш -таълим жараёни ва унинг самарадорлигини оширишда ўқув натижаларга эришишнинг кафолатланган натижаси эканлиги хусусида фикр билдирилган.
**Калит сўзлар:** таълим олувчилар, инновацион таълим, мустақил таълим, лойиҳалаштириш, педагогик технологиялар, таълим самарадорлиги.

В статье затрагиваются вопросы инновационных технологий и самообразования, их место в современной системе образования, а также правильность планирования самообразования, которое гарантирует достижение эффективных результатов обучения в образовательном процессе.
**Ключевые слова:** обучаемые, инновационное обучение, самообразование, планирование, педагогические технологии, эффективность обучения.

The article touches upon the issues of innovative technology and self-education training and their roles in modern educational system, as well as the proper planning of self-education training that guarantees the achievement of effective outcomes of training in the educational process.
**Key words:** learners, innovative, education, independent, learning, project, pedagogical technologies educational effectiveness.

Бугунги кунда мустақил таълим олиш сифатини ошириш ҳар бир шахснинг жамиятда муваффақиятли ўз ўрнини топишида муҳим хусусиятларидан бири ҳисобланади. Жумладан, олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясида “бутун ҳаёт давомида сифатли таълим олишга имконият яратиш” ғояси таълим олувчиларнинг мустақил таълим олишлари, мустақил ишлаш малакаларини узлуксиз ошириш орқали мутахассисларнинг зарурий компетенцияларини, ижодий яратувчанлик, тадқиқотчилик, мантиқий тафаккурини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилган. Бугунги кунда бўлажак мутахассисларнинг зарурий компетенцияларини шакллантиришнинг интерфаол усулларини ҳамда мустақил таълимнинг замонавий парадигмаларини (Distance learning, Blended learning) жорий этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда [2].

Хорижий тажрибаларга асосан бир қанча ривожланган мамлакатларнинг нуфузли илмий -тадқиқот марказларида профессионал таълим жараёнини компетентли ёндашув асосида лойиҳалашни амалга оширишнинг илмий асосланган методик тизимини яратиш борасида салмоқли амалий натижаларга эришилган. Шунга кўра, малакали кадрларни тайёрлашда амалдаги таълим ёндашувларини ўзгартириш ва ўзлаштирилган назарий билимларни мустақил ишлаш орқали амалиётда қўллай олиш кўникмаларини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикасида таълим тизимини тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлаш компетенцияларига эга юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, ёшларни санъат дунёсига ошно этиш, компьютер ва IT технологиялари соҳасида билим ва компетенцияларга эга бўлишлари учун зарур жиҳозлар билан таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони асосида “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган янги

Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони[3] қабул қилинганлиги айни мазкур муаммоларни бартараф этишга қаратилганлигини эътироф этиш мумкин.

Таълим тизимида олиб борилаётган ислоҳотлар талабаларни мустақил фикрлашини ривожлантириш, индивидуал таълим траекторияларига асосланган, талабаларда креатив фикрлаш, амалий кўникмаларни шакллантиришга оид муаммоларни бартараф этишга қаратилгандир. Олий таълим муассасаларида бу вазифаларни амалга оширишга босқичма-босқич ўтиш режалаштирилган [5].

Мустақил таълим жараёнига инновацион технологияларни татбиқ этишнинг зарурлиги шундаки:

Биринчидан, жамиятимизнинг тараққий этган мамлакатлар қаторидан ўрин олиши ҳамда аҳоли таълимини жадаллаштириш ва самарадорлигини ошириш мақсадида.

Иккинчидан, ўқитувчи фаолиятига фақатгина ўқув жараёнининг ташкилотчиси эмас, балки нуфузли билимлар манбаи сифатида қаралаётганлиги.

Учинчидан, фан-техника тараққиётининг ўта ривожланганлиги натижасида ахборотларнинг жадал кўпайиб бораётганлиги ва уларни ёшларга етказиш учун вақтнинг чегараланганлиги.

Тўртинчидан, кишилик жамияти ўз тараққиётининг шу кундаги босқичида назарий ва эмпирик билимларга асосланган тафаккурдан тобора фойдали натижага эга бўлган, аниқ якунга асосланган техник тафаккурга ўтиб бораётганлиги.

Бешинчидан, ёшларни ҳаётга мукаммал тайёрлаш талаби уларга энг илғор билим бериш усули ҳисобланган объектив борлиққа тизимли ёндашув тамойилидан фойдаланишни талаб қилаётганлиги.

Инновацион технологиялар оқими деярли барча ривожланган мамлакатларда тез тарқалди ва ҳозирги кунда кўпгина мамлакатларда муваффақиятли ўзлаштирилмоқда. Таълимни технологиялаштиришнинг асосини мустақил таълим жараёни ва унинг самарадорлигини ошириш ҳамда таълим олувчиларнинг берилган шароитларда ва ажратилган вақт ичида лойиҳалаштирилаётган ўқув натижаларга эришишларини кафолатлаш мақсадида тўлиқ бошқариш ғояси ташкил этилди.

Инновацион технологияларнинг предмети таълим тизимининг концептуал асосларига далил келтиришдан, мақсадларини қўйишдан, натижаларни шакллантиришдан, ўқув материалларини танлаш ва структуралаштиришдан, таълим модулини танлашдан уларнинг оптималлик ва самарадорлик даражасини баҳолашгача бўлган тизимни лойиҳалаштиришдан таркиб топган.

Мустақил таълим жараёнида таълим берувчи билан таълим олувчи ўртасидаги маълум мақсадлар асосида белгиланган билим ва кўникмаларни таркиб топтиришга йўналтирилган ўзаро таъсирлашув жараёнидир. Бу жараённи бир тизим деб қарайдиган бўлсак, таълим берувчи ва таълим олувчидан ташқари унга қуйидаги ташкил этувчи элементларни ҳам киритиш мумкин: таълим мақсади, кутилаётган натижалар, мустақил таълим мазмуни, шакли, уни амалга ошириш воситалари, мониторинг ва баҳолашга эътибор қаратиш муҳим ҳисобланади. Мустақил таълим жараёнини ташкил этишда юқорида санаб ўтилган элементларнинг барчаси муҳимдир. Улардан бирортаси четда қолса ёки нотўғри танланган бўлса, тизим ишламайди. Демак, мустақил таълим жараёни олдига қўйилган мақсадга эришилмайди.

Таълим муассасаларида мустақил ишни қандай бажаришни ҳар бир талабанинг ўзи ташкил этади. Муваффақиятга эришиш учун талабанинг ўзи сабр-тоқат билан, машаққатлардан қўрқмай ўз устида ишлаши, буни эса, талабанинг ўзи режалаштиради ва амалга оширади.

Демак, пировард мақсад талабаларга мустақил ва ижодий ишлаш фаолиятини ривожлантириш омиллари ҳақида назарий билимларни бериш, уларда амалий кўникма ва

малакаларни шакллантириш учун, улар билан якка ҳолда шуғулланиш имкониятларини кенгайтириш, уларнинг мустақил ишлаши, мустақил таълим олиш жараёнида ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш бугунги куннинг заруратига айланиши керак.

Ҳозирги кунда таълим жараёнини, олий таълимнинг ўқув режа ва дастурларини инновацион технологиялар ва ўқитиш усулларини кенг жорий этиш, магистратура илмий-таълим жараёнини сифат жиҳатидан янгилаш ва замонавий ташкилий шаклларни жорий этиш асосида янада такомиллаштириш асосий муаммолар қаторида ва ушбу муаммолардан келиб чиқиб, олий таълимнинг ўқув режа ва дастурларини янги педагогик технологиялар ва ўқитиш усулларини кенг жорий этилган янги авлодини яратиш, магистратура илмий -таълим жараёнини сифат жиҳатидан янгилаш ва замонавий ташкилий шаклларни жорий этиш бош мақсад бўлиб қолмоқда.

Бугунги глобаллашув шароитида таълим жараёнида илғор педагогик технологиялар ва фаол усуллардан фойдаланиш, янги ишлаб чиқарилаётган техник воситаларни татбиқ қилиш, кўпроқ талабаларни мустақил ишлашга ундаш, илғор тажрибалардан сабоқ беришнинг турли йўлларидан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Яна бир жиҳати муҳимки, олий таълим тизимида таълим олаётган талабаларнинг танлаган касбига мойиллиги, лаёқатлари, билим ва кўникмаларини ривожлантириш, уларнинг танлаган йўналишлари бўйича мутахассис сифатида шаклланишлари учун махсус фанларни ўқитишни самарали ташкил қилишни таъминлаш лозим.

Ҳар қандай жамиятда бўлганидек, республикамизнинг тараққиётида бозор иқтисодиёти шароитида рақобатга бардош бера оладиган малакали мутахассисларни тайёрлаш асосий муаммо ҳисобланади. Мутахассис кадрлар тайёрлаш, унинг сифат ва самарадорлигини ошириш борасида ҳам сўнгги йилларда кенг кўламли ишлар қилинди ва қилинмоқда. Жумладан, тайёрланаётган мутахассис кадрларнинг мустақиллиги, ижодкорлиги, тадбиркорлиги, фаоллиги каби хислатларни таркиб топтиришга алоҳида эътибор берилмоқда.

Таълим муассасаларида мустақил ишни қандай бажаришни ҳар бир талабанинг ўзи амалга оширади. Муваффақиятга эришиш учун талабанинг ўзи сабр-тоқат билан, машаққатлардан қўрқмай ўз устида ишлаши, буни эса, талабанинг ўзи режалаштиради ва амалга оширади.

Демак, пировард мақсад таълим олувчиларга мустақил ва ижодий ишлаш фаолиятини ривожлантириш омиллари ҳақида назарий билимларни бериш, уларда амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш учун, улар билан якка ҳолда шуғулланиш имкониятларини кенгайтириш, уларнинг мустақил ишлаши, мустақил таълим олиш жараёнида ташкилотчилик қобилияти, мустақил ва ижодий ишлаш фаолиятини ривожлантириш элементларини қўллаш шу куннинг заруратига айланиши керак.

Бугунги кунда амалга оширилаётган таълим тизимидаги ислоҳотлар негизида таълим олувчиларнинг онглилиги ва фаоллигини ошириш учун ўқитиш жараёни шундай ташкил этишни назарда тутадики, бунда талабалар илмий билимларни ҳамда уларни амалда қўллаш методларини онгли ва фаол эгаллаб оладиган, уларда ижодий ташаббускорлик ва ўқув фаолиятида мустақиллик, тафаккур, нутқ техникасини ривожлантириш асосий масалалардан бири ҳисобланади.

Ўқитувчининг мустақил таълимни ташкил этишга бевосита тайёрланиши ҳар бир дарсда қўлланиладиган мавзувий режалаштиришни конкретлаштиради. Мустақил таълимни ташкил этишнинг режаси ҳар бир ўқитувчи учун зарурдир. Одатда, фақат унинг ҳажми фарқ қилади: эндигина ўзининг ўқитувчилик фаолиятини бошлаётганлар ўзларининг ҳамма ҳаракатлари ва мустақил таълимни боришини тасвирлаш, кичик бўлакларигача кўрсатилган мукаммал эслатма ёзадилар. Тажрибали ўқитувчилар эса қисқа, ихчам режа тузадилар.

Мустақил таълимни режаси ихтиёрий шаклда тузилади, аммо унда қуйидаги таркибий қисмларнинг акс этишини таъминлаш зарур: мустақил таълимни ўтказилиш муддати; ўтказиладиган аудитория, мустақил таълим мавзуси номи; таълим вазифалари, шакллантириладиган билим, малака ва кўникмалар; талабаларни тарбиялаш ва ривожлантириш; мустақил таълимнинг босқичларининг давомийлиги ва ушбу босқичларда вақтнинг тахминий тақсимланишини кўрсатган ҳолдаги таркибий тузилиши; ўқув материалининг мазмуни; мустақил таълимнинг ҳар бир қисмида ўқитувчи ва талабанинг иш усуллари ҳамда методлари; таълимнинг кўргазмали ва техник воситаларини қўшиб ҳисоблаганда мустақил таълимни ўтказиш зарур бўлган воситалари; мустақил таълимда бевосита ўтказиладиган топшириқлар [4].

Мустақил таълимнинг ютуғи ва унинг натижалари нафақат ўқитувчининг тайёрлигига, балки талабаларнинг тайёргарликларига ҳам боғлиқ бўлади. Афсуски, ушбу масалага кўпгина ўқитувчилар ўзларининг амалий ишларида етарли даражада эътибор бермайдилар. Шу билан бирга талабаларнинг навбатдаги мустақил таълимга маълум мақсадга йўналтирилган тайёрланишлари уларда ижобий психологик кайфиятни вужудга келтиради, англашга, билишга бўлган юқори даражадаги қизиқишни туғдиради.

Хулоса қилиб айтганда, олий таълим муассасалари ўқув жараёнида талабаларнинг мустақил ишларини ташкил қилиш шакллари турлича бўлиб, уларнинг бир қисми ўқув режасида кўзда тутилган. Мустақил ишни ташкил этишнинг муҳим хусусияти шундаки, уни талабанинг ўзи ташкил қилади. Мустақил ишни бажариш учун талаба ўзини ўзи мажбур қилиши талаб қилинади. Мустақил ишларни бажариш муддати жиҳатидан хоҳлаганча давом этиши мумкин эмас. Таълим жараёнида мустақил ишни ташкил қилишда иш тартибини белгилаш ҳам катта аҳамиятга эга. Чунки, мустақил ишни бажаришни ташкил қилишнинг асосий принципи унинг мунтазамлигидир.

**Фойдаланилган манбалар**

1. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида»ги Қонуни – Т., 2020 йил, 23 сентябрь //Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси: URL:www Lex.uz – Мурожаат санаси: 12.01.2022.

2. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси. 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони. https://lex.uz/ – Мурожаат санаси: 02.01.2022.

3. "2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони. - URL:https://lex.uz/ – Мурожаат санаси: 11.02.2022.

4. Муқимов, Б.Р. Талабаларни мустақил иш жараёнида интерфаол таълим методлари асосида дидактик компетенциясини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация./ Б.Р. Муқимов – Т., 2020. - 186 б.

5. Musakhanova, G. Design and research method as an innovative approach aimed at the development of organizational abilities of students in the process of independent work ./ G. Musakhanova.- Архив научных исследований, 2(1). - URL http: // journal. tsue.uz/ index. php/ archive/ article/view/600. – Date of access: 15.01.2022.

6. Khakimova, M.F. Opportunities of innovation technologies in higher education. International Journal on Integrated Education. 3, 12 (Dec. 2020), 282-285 б. DOI:/ M. F. Khakimova, M. N. Mirzaeva, Bazarova., G. M. Musakhanova - URL:https://doi.org/10.31149/ijie.v3i12.1002.– Date of access: 21.02.2022.

7. Musakhanova, G.M. Directions for Students' Independent Learning Skills Developing in the Context of Digitalization of the Economy./ G. M. Musakhanova // International Journal of Social

Science Research and Review, 2022. – №5(1). - P. 64-67. - URL: https://doi.org/10.47814/ijssrr.v5i1.160 – Date of access: 11.02.2022.

*Қабул қилинган сана: 16.03.2022*

*Тақризчилар:*

*Музаффаров З., доцент, подполковник, ЎР ҚК Академияси*

*Анарбоев О., доцент, подполковник, ЎР ҚК Академияси*